MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/25.08.2021.Fil.01.16 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

RAXIMBOYEVA XULKAR G‘AYRATOVNA

O‘ZBEK TILIDA GAPLARNING IYERARXIK TAHLILI KORPUSINI YARATISH

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi.

FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

UO‘K: 81’322:81’366:811.512.133

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on philological sciences

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/25.08.2021.Fil.01.16 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

RAXIMBOYEVA XULKAR G‘AYRATOVNA

O‘ZBEK TILIDA GAPLARNING IYERARXIK TAHLILI KORPUSINI YARATISH

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi.

FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Fil2702 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Imiy Kengashning veb-sahifasida (www.nuu.uz) va “ZiyoNET” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Sadullayeva Nilufar Azimovna** filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Abduraxmonova Nilufar Zaynobiddin qizi** filologiya fanlari doktori, professor
	Toirova Guli Ibragimovna filologiya fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Urganch davlat Universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiton Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi **DSc.03/25.08.2021.Fil.01.16** raqamli bir martalik Ilmiy kengashning 2025-yil “____” _____kuni soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100174, Toshkent shahar, Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 246-02-24; faks: (99871) 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz. O‘zbekiston Milliy universiteti, O‘zbek filologiyasi fakulteti, 1-qavat, 108-xona).

Dissertatsiya bilan Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiton Milliy universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent shahar, Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 246-02-24; faks: (99871) 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz. O‘zbekiston Milliy universiteti, O‘zMU ma’muriy binosi, 2-qavat, 4-xona.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “____” _____kuni tarqatildi.

(2025-yil “____” _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

N.A.Rahmanov
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash raisi, filol.f.d., professor

M.B.Xujamkulova
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash kotibi, PhD, dotsent

A.E.Mamatov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi bir martalik ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon mamlakatlarining turli sohalari axborot olamining bevosita ta’siri ostida ekanligi, muloqot va axborotning ahamiyati juda kattaligi hammaga ma’lum. Shu bilan birga, kompyuter texnologiyalari yangi davr maqsadlariga erishishda muhim o‘rin tutib, hayotning barcha jabhalariga kirib bordi. Globallashuv sharoitida mashina tili va inson tili o‘rtasidagi farq bilan bog‘liq ma’lum qiyinchiliklar mavjud, bundan tashqari, inson tilining mavjud o‘ziga xos xususiyatlari bu muammoni hal qilish zaruratini tobora ko‘proq belgilamoqda. Shu nuqtayi nazardan kompyuter lingvistikasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo tilshunosligida iyerarxik tahlil korpusi matnlarning sintaktik tuzilishini chuqur tahlil qilishda muhim ahamiyatga egadir. Til ko‘nikmalarini faollashtirish va uni dunyoga tanitish uchun uning nazariy hamda ilmiy tomondan tatbiq etilishi yetarli hisoblanmaydi, balki o‘sha tilni hozirda dolzarb hisoblanuvchi xalqaro tabiiy tillarni qayta ishlash (NLP – Natural Language Processing) resurslari orqali dunyoga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Kompyuter lingvistikasi tilni sun’iy intellekt modellari yordamida o‘rganadi, shuningdek, katta hajmdagi matnlar to‘plamini (korpusni) tahlil qilishni o‘z ichiga oladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda ham korpus lingvistikasi yoki sun’iy intellekt kabi kompyuter sohalari ko‘lami rivojlanish bosqichida bo‘lib, ko‘rib chiqilmagan jihatlari yetarlicha ko‘p hisoblanadi, bu sohada lingvistik va tabiiy tillarni qayta ishlash resurslari sezilarli darajada kamligicha qolmoqda. Yetarli hajmdagi gaplarni qamrovchi iyerarxik (sintaktik, morfologik tahlil qilingan) tizimlangan korpus yaratish orqali o‘zbek tilining lingvistik tadqiqotlarini rivojlantirish, shuningdek, xalqaro ilmiy hamjamiyatda tan olinish imkoniyati oshadi.

Mazkur tadqiqot ish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni, 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-son “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni, 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlarda va mazkur sohaga tegishli me’yoriy-huquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda xizmat qiladi. Prezidentimiz aytganidek, “O‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyatlari, shevalari, tarixiy taraqqiyoti, uning istiqboli bilan bog‘liq ilmiy tadqiqotlar samarasini oshirish”[1] mamlakatimizdagi kundalik talablardan biri sanaladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 21-oktyabrdagi “Milliy o‘zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli” mavzusida o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi // Xalq so‘zi, 2019-yil, 22-oktyabr.

rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida universal sintaktik bog‘liqlik mavzusining yoritilishida J.Nivre, D.Zeman, de Marneffe, D.Manning, De Marneffe, Donald Knut, Yevgeniy Karniak Daniel Jurafsky [2] kabi bir qancha olimlar tabiiy tillarni qayta ishlash jarayoni hamda korpus yaratish bo‘yicha bir qator tadqiqotlarga hissa qo‘shganlar.

Respublikamizda o‘zbek kompyuter lingvistikasi bo‘yicha A.Q.Po‘latov, M.M.Aripov, A.E.Mamatov, N.Z.Abduraxmanova, M.M.Kurbanova, M.M.Musayev, N.A.Sadullayeva, Sh.A.Nazirov, M.H.Hakimov, O‘.Hamdamov, N.A.Ignatev va G‘.R.Matlatipovlar[3] rahbarligida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar o‘zbek tili grammatikasining formal modelini yaratish, o‘zbek, turk va qoraqalpoq tillaridagi gap tuzilmalarini formallashtirish, turkiy tillar uchun lug‘at yaratish, nutqli signallarning shakllanish jarayonlarini modellashtirish, nutq sintezatorlarini yaratish, ko‘p tilli modellashgan mashina tarjimasiga oid til obyektlarining mantiqiy-lingvistik va matematik modellarini yaratish masalalariga qaratilgan.

O‘zbekistonlik mashhur olim, fizika-matematika fanlari doktori, professor Abdumajid Po‘latov tomonidan uzoq yillar davomida tilshunoslikka oid “Ingliz tili”, “Dunyoviy o‘zbek tili. O‘zbek tilida fe’l shakllari va ularning rus, ingliz tillaridagi ko‘rinishlari”, “Kompyuter lingvistikasi”, “Ingliz tili – mustaqil o‘rganuvchilar uchun” va boshqa kitoblari [4], O‘.Sharipov, I.Yo‘ldoshevlar tomonidan “Tilshunoslik asoslari” [5] nomli o‘quv qo‘llanma, A.Rahimov tomonidan “Kompyuter lingvistikasi asoslari” [6] nomli o‘quv qo‘llanma, G‘.R.Matlatipov tomonidan “Mashina tarjimasi texnologiyalari” nomli o‘quv

---

[2]Nivre J., Zeman D. Universal Dependencies: A Cross-Linguistic Perspective on Grammar and Lexicon // Proceedings of the Workshop on Grammar and Lexicon: Interactions and Interfaces (GramLex 2016), 2016. – P. 8-17. URL: https://aclanthology.org/W16-3806.pdf.

De Marneffe M.-C., Manning C.D., Nivre J., Zeman D. Universal Dependencies // Computational Linguistics, 2021. Volume 47. Issue 2. – P. 255-270. URL: https://direct.mit.edu/coli/article/47/2/255/98516/Universal-Dependencies; Jurafsky D., Martin J.H. Speech and language processing: An introduction to natural language processing, computational linguistics, and speech recognition: Prentice Hall, 2000.

[3] Abdurakhmonova N.Z., Urdishev K. Corpus Based Teaching Uzbek As A Foreign Language // Journal of Foreign Language Teaching and Applied Linguistics. – Tashkent, 2019 // Abdurakhmonova Nilufar, Ismailov Alisher, Sayfullayeva Ra’no. MorphUz: Morphological analyzer for the Uzbek language / 7th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK), 2022. – № 9/14. – P. 61-66; Abdurakhmonova N. Dependency Parsing Based On Uzbek Corpus / Proceedings of the International Conference on Language technology for all (LT4all), 2019; Abdurakhmonova N.Z., Alisher S., Ismailov A., Mengliev D. Developing NLP tool for linguistic analysis of Turkic languages / IEEE International Multi-Conference on Engineering, Computer and Information Sciences (SIBIRCON), 2022; Abdurahmonova Nilufar. Kompyuter lingvistikasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021; Aripov Mirsaid, Razzoqova Bibigul, Sharibbek Altinbay, Abdurakhmonova Nilufar. Ontology of grammar rules as example of Noun the Uzbek language and Kazakh languages / VI International scientific conference “Modern problems of the applied mathematics and information technology – Al Khorezmiy”. – T., 2018. – P. 37-38; Aripov Mirsaid, Begalov Baxodir, Begimqulov Uzoqboy, Mamarajabov Mirsalim. Axborot texnologiyalari. – Toshkent, 2009; Po‘latov A., Muhammedova S. Kompyuter lingvistikasi. – T., 2008; Po‘latov A. Kompyuter lingvistikasi. – T., 2011; Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. – T., 2011.

[4] Po‘latov A. Kompyuter lingvistikasi. – T., 2011.

[5] Sharipov O‘,. Yo‘ldoshev I. Tilshunoslik asoslari. – Toshkent: Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti, 2006.

[6] Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. – T., 2011.

qo‘llanma[7], N.Z.Abduraxmanova tomonidan “Korpus lingvistikasi” nomli darslik chop etilgan.

Shuningdek, jahonda tabiiy tillarning kompyuterga yo‘naltirilgan modellarini ishlab chiqish bo‘yicha bir qator tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, jumladan, N.A.Xomskiy (AQSH), Christopher D.Manning (AQSH), D.Juraffskiy (AQSH), Carlos Gómez-Rodríguez (Ispaniya), Joakim Nivre, Miguel A.Alonso (Ispaniya), Marco Kuhlmann (Shvetsiya), A.Jeyms, G.Fant, R.Delmonti [8] va boshqalarning bu boradagi ishlari qiyosiy o‘rganib chiqildi. Shuningdek, Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi davlatlarida kompyuter lingvistikasi sohasida faoliyat yuritayotgan Ye.I.Bolshakova, A.Sharipbay[9] kabi olimlarning ushbu sohadagi qilingan ilmiy va uslubiy ishlari o‘rganildi.

Tadqiqotning maqsadi. O‘zbek tilida elektron shaklda saqlangan matnli ma’lumotlarni qayta ishlash uchun iyerarxik bog‘liqlik korpusini qurish, sun’iy intellekt modeli orqali baholash va dasturiy ta’minotini yaratish.

Tadqiqotning vazifalari. Tadqiqot maqsadini amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni hal qilish zarur bo‘ladi:

o‘zbek tilidagi iyerarxik korpusini annotatsiyalash uchun negizlash, morfologik xususiyatlash, gap bo‘laklarini aniqlash va bog‘liqlik qoidalarini ishlab chiqish uchun yo‘riqnoma tayyorlash;

o‘zbek tilidagi murakkab va sodda gaplardan tashkil topgan korpus bazasini yig‘ish hamda unga ishlov berish (pre-processing);

o‘zbek tilidagi korpusga kiritilgan gaplar tarkibidagi har bir so‘zning negizini (lemmasi) aniqlash va morfologik xususiyatlarini tahlil qilgan holda, avtomatik parser yordamida xulosalar chiqarish, to‘liq iyerarxik bog‘liqlik daraxti tahlil korpusini taqdim etish;

o‘zbek tilidagi korpusga kiritilgan gaplar tarkibidagi so‘zlarning sintaktik xususiyatlarini aniqlab, iyerarxik tarzda bog‘lanishlarini qurish va tobelanishni sun’iy intellekt modeli orqali tahlil qilish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Kun.uz va daryo.uz saytlaridan tanlab olingan matnlar korpusda tahlillash uchun olingan.

---

[7] Matlatipov G‘.R. Mashina tarjimasi texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. – T., 2024.

[8] Gómez-Rodríguez Carlos, Nivre Joakim. A transition-based parser for 2-planar dependency structures / Proceedings of the 48th Annual Meeting of the Association for Computational Linguistics, 2010. – P. 1492-1501; Nivre Joakim, Rimell Laura, McDonald Ryan, Gomez-Rodriguez Carlos. Evaluation of dependency parsers on unbounded dependencies / Proceedings of the 23rd international conference on computational linguistics, 2010. – P. 833-841; D.Gonzalez-Franco Joan, E.Preciado-Velasco Jorge, E.Lozano-Rizk Jose, Rivera-Rodriguez Raul, Torres-Rodriguez Jorge, A.Alonso-Arevalo Miguel. Comparison of Supervised Learning Algorithms on a 5G Dataset Reduced via Principal Component Analysis (PCA) – Future Internet, 2023. – P. 335; Ralph Debusmann, Denys Duchier, Alexander Koller, Marco Kuhlmann, Gert Smolka, Stefan Thater., A relational syntax-semantics interface based on dependency grammar COLING 2004 / Proceedings of the 20th International Conference on Computational Linguistics, 2004. – P. 176-182; Dann Juraffskiy., James H.Martin. Speech and language processing. – New Jersey: Upper Saddle River, 2008. February; Manning Ch., Schutze H. Foundations of Statistical Natural language Processing, MIT Press. Cambridge, MA, 1999. May; Andrew Ng. Machine Learning yearning, technical strategy for AI Engineers in the Era of Deep Learning, 2023. August.

[9] Bol'shakova E.I., Vorontsov K.V., Efremova N.E., Klyshinskiy E.S., Lukashevich N.V., Sapin A.S. Avtomaticheskaya obrabotka tekstov na estestvennom yazyke i analiz dannykh [Automatic natural language text processing and data analysis]. – Moscow: NIU VShE Publ, 2017; Sharipbay Altynbek, Razakhova Bibigul, Mukanova Assel, Yergesh Banu, Yelibayeva Gaziza. Proceedings of the Second International Conference on Data Science, E-Learning and Information Systems. – Kazakhstan, 2019. – P. 1-5.

Tadqiqotning predmeti o‘zbek tilidagi gaplarning sintaktik tuzilishini iyerarxik tarzda izohlash orqali, so‘zlar orasidagi grammatik munosabatlarni aniqlash va tasniflashdir.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, tavsiflash, avtomatik parsing[10], yo‘riqnoma orqali annotatsiyalash, o‘tkazish (transfer), korpus tahlili, statistik usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi.

o‘zbek tilida iyerarxik bog‘liqlik korpusi yaratildi;

o‘zbek tilidagi iyerarxik korpusini annotatsiyalash, negizlash (lemmalash) morfologik xususiyatlash, gap bo‘laklarini aniqlash va bog‘liqlik qoidalarini ishlab chiqish yo‘riqnomasi yaratildi;

o‘zbek tilidagi jumlalarning iyerarxik qoidalari, morfologik hamda sintaktik xususiyatlari korpus doirasida chuqur tahlil qilindi va annotatsiyalandi;

o‘zbek tilining xususiyatlarini inobatga olgan holda tabiiy tilni qayta ishlash jarayoni uchun sun’iy intellekt modeli qurilib, korpusning ishonchliligi sun’iy intellekt modeli orqali sintaktik tahlil qilgan holda baholandi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) va sun’iy intellekt sohasida o‘zbek tilida avtomatik tarjima, matnni tahlil qilish, savol-javob tizimlari va ovozli yordamchilarni yaratishda asosiy til resursi sifatida xizmat qiladi;

tilshunoslik tadqiqotlari uchun aniq sintaktik ma’lumotlar bazasini ta’minlab, o‘zbek tilining grammatik tizimini chuqur tahlil qilish imkonini beradi;

ta’lim jarayonida lingvistik modellar asosida interaktiv vositalar va o‘quv dasturlarini ishlab chiqishga yordam beradi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. UAS (unlabeled attachment score – annotatsiyalanmagan bog‘lanish balli) hamda LAS (Labeled attachment score – annotatsiyalangan bog‘lanish balli) matematik baholash metodlari orqali korpusning natijaviy ishonchliligi ko‘rsatilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Ilmiy ahamiyati iyerarxik tahlil korpusi tilshunoslik va kompyuter lingvistikasi tadqiqotlari uchun o‘zbek tilining sintaktik tuzilishini raqamli shaklda ifodalovchi, sintaktik hodisalarni chuqurroq tahlil qilish hamda boshqa tillar bilan qiyosiy ilmiy izlanishlarni amalga oshirish imkonini beruvchi baza vazifasini bajaradi. O‘zbek tilining sintaktik tuzilmasini raqamli shaklda ifodalaydi, bu esa tahliliy tadqiqotlarni rivojlantiradi va til modellarini yaxshilashga hissa qo‘shadi.

Amaliy ahamiyati esa tabiiy tilni qayta ishlash dasturlarini rivojlantirish uchun zarur resurs vazifasini bajaradi, jumladan, avtomatik tarjima, chatbotlar, matn mazmunini tahlil qilish, matnlarni avtomatik umumlashtirish, sentiment tahlil kabi vazifalarda ishlatiladi. Bu o‘z o‘rnida, o‘zbek tilida ishlovchi aqlli tizimlar, qidiruv tizimlari va axborot olish tizimlarining sifatini oshiradi, bu esa mazkur texnologiyalarning kundalik hayotda qo‘llanishini kengaytiradi. Shuningdek, o‘zbek tilidagi raqamli xizmatlar va dasturiy ta’minotlarni ishlab chiqish uchun

[10] Parsing (o‘zbekchada “tahlil qilish”, “ajratish”, “tarkibiy qismlarga ajratish”) degani, berilgan jumlaning grammatik tuzilishini aniqlash, ya’ni so‘zlarning o‘zaro bog‘liqlik munosabatlarini topish jarayonidir.

tayyor resurs sifatida xizmat qiladi, bu esa mahalliy va global IT kompaniyalariga o‘z mahsulotlarini yanada sifatli hamda foydalanuvchi talablariga mos ravishda yaratishlariga imkon beradi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzurida tashkil etilgan Jahon bankining “O‘zbekiston milliy innovatsion tizimini modernizatsiya qilish” loyihasi tomonidan asos solingan REP-25112021/113 “UzUDT: O‘zbek tilida tabiiy tilni qayta ishlash uchun universal bog‘liqlik daraxti korpusi va uning semantik tahlili” granti doirasidagi amaliy tadqiqotlarda tayyorlangan “O‘zbek tilida gaplarning iyerarxik tahlili korpusini yaratish” mavzusidagi tadqiqot ilmiy natijalaridan foydalanildi. Jumladan, amaliy loyiha doirasida o‘zbek tili matnlaridagi so‘zlarni morfologik tahlil qilish yuzasidan negizlash (lemmalash)ni bajarish, iyerarxik sintaktik bog‘lanishlarni aniqlash, ularni teglash va baholash, matndagi so‘z turkumlarini annotatsiyalash va baholash, morfologik xususiyatlar bazasini ishlab chiqish masalalarida dissertatsiya ishining ilmiy natijalaridan foydalanildi;

Xorazm Ma’mun akademiyasida faoliyat olib borayotgan A-FA-2019-9 shifrli “Qadimiy yozma noyob qo‘lyozma va manbalarni tadqiq qilish, ularning raqamlashtirilgan bibliotekasini yaratish” amaliy loyihasida mazkur tadqiqotdan keng foydalanildi, olingan natija va xulosalarning amaliyotga tatbiq etilishi quyidagilarga xizmat qildi: dissertatsiya materiallari tarixiy asarlarda uchraydigan mumtoz adabiyot vakillarining ijod namunalarini tahlil qilishda; tarixiy asarlar matnida uchraydigan so‘zlar va gaplarni to‘g‘ri tabdil qilish, izohlashda; XIX asrga tegishli adabiy manbalar tilini lingvistik tahlil qilish, oldingi va keyingi davr til xususiyatlari bilan solishtirish, o‘ziga xos belgilarni aniqlashda yordam berdi;

Erasmus + dasturining Project №598340-EPP-1-2018-1-ES-EPPKA2-CBHE-JP University Cooperation Framework for Knowledge Transfer in Central Asia and China (UNICAC) grant loyihasida dissertatsiyadan olingan natijalardan foydalanildi: tillararo semantik qidiruv tizimlarini va ma’lumotlar bazalarini kengaytirish; ma’lumotlarga asoslangan tahlillar yordamida til o‘rganish va tillaridagi sintaktik o‘ziga xos jihatlarni ta’kidlaydigan ta’lim vositalarini yaratish; xalqaro loyihalarda foydalanish uchun lingvistik resurslarni standartlashtirishda foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqotning muhim g‘oyalari va amaliy natijalari 3 ta xalqaro (shundan 1 ta Scopus), 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ish e’lon qilingan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 4 ta respublika va 1 ta xorijiy nashrlarda chop qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, umumiy xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan bo‘lib, ishning umumiy hajmi 133 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi va muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e’lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasida ma’lumotlar berilgan.

Tadqiqotning “**Iyerarxik tahlil korpusining asosiy tushunchalari**” deb nomlangan birinchi bobida iyerarxik korpusi va uning sintaktik tahlili, o‘zbek tili texnologiyasi hamda iyerarxik korpus yaratish metodlari, izohlash (annotatsiyalash) sxemalari va foydalaniladigan elektron vositalar alohida tushuntirilib, misollar keltirilgan.

Ko‘p tilli tabiiy tilni qayta ishlash talabining ortib borishi bilan o‘zbek tiliga ham qiziqish ortib bormoqda. Ayniqsa, morfologik jihatdan boy bo‘lgan o‘zbek tili uchun uning iyerarxik bog‘liqliklarini va semantikasini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbek tilida erkin so‘z tartibi va agglyutinativ morfologiya keng tarqalgan bo‘lib, bog‘liqlikni aniqlash aniq va kontekstga mos tabiiy tillarni qayta ishlash vositalarini yaratishda zarurdir. Ushbu tadqiqot ishi o‘zbek tilidagi iyerarxik bog‘liqlikni aniqlashning ahamiyati, metodologiyasi, muammolari va qo‘llanilish sohalarini o‘rganadi hamda uning o‘zbek tilida so‘zlashuvchilar uchun tabiiy tillarni qayta ishlash sohasi rivojlantirishidagi transformatsiyaviy rolini ta’minlaydi.

Iyerarxik bog‘liqlik – bu gapning grammatik tuzilishini tahlil qilish jarayoni bo‘lib, unda so‘zlar o‘rtasidagi munosabatlar aniqlanadi. Bog‘liqlikni tahlil qilishda (parsing) har bir so‘z “bosh” so‘z yoki qo‘shimcha bilan bog‘lanadi, bu esa har bir so‘zning gapdagi sintaktik rolini ko‘rsatadigan “bog‘liqlik munosabatini” o‘rnatadi[11]. Masalan, “Talaba kitobni o‘qiyapti” jumlasida “kitobni” (kitob) so‘zi “o‘qiyapti” (o‘qimoqda) fe’liga obyekt sifatida bog‘lanadi, “Talaba” (talaba) esa subyekt sifatida xizmat qiladi.

Bog‘liqlikni aniqlash ko‘plab tabiiy tillarni qayta ishlash ilovalari, jumladan, mashina tarjimasi, sentiment tahlil qilish va savol-javob tizimlari uchun muhimdir. Iyerarxik bog‘liqlikni aniqlash batafsil sintaktik tuzilmalarni taqdim etish orqali gaplarni aniq talqin qilish, mantiqiy va kontekstga mos natijalarni ishlab chiqarishga imkon beradi.

O‘zbek tilidagi iyerarxik bog‘lanishli tahlil qilish o‘ziga xos hisoblanadi. Turkiy tillar oilasiga kiruvchi o‘zbek tili o‘zaro bog‘liqlikni tahlil qilishni ham qiyin, ham foydali qiladigan bir qancha xususiyatlarga ega.

Agglyutinativ morfologiya: O‘zbek tili so‘zlarni ildizga bir nechta suffikslarni qo‘shish orqali hosil qiladi. Masalan, “o‘qiyapman” (Men o‘qiyotganim) so‘zida “o‘q” negizi, vaqt hamda subyekt ma’lumotlarini ifodalovchi -iya, -p, va -man

[11] Shukurov M. O‘zbek tili va grammatikasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2010. – B. 86-87.

suffikslar mavjud. Bu tuzilmalarni aniq parserlash so‘zlar o‘rtasidagi sintaktik munosabatlarni tushunish uchun juda muhimdir[12].

*Erkin so‘z rartibi***:** O‘zbek tilida odatda Subyekt-Obyekt-Fe’l (SOV) tartibi kuzatiladi, ammo bu tuzilma yozma va og‘zaki shakllarda sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Bu erkinlik bog‘liqlikni aniqlovchilar turli gap tuzilmalariga moslashuvchan bo‘lishi, shu bilan birga, sintaktik munosabatlarning aniqligini saqlab qolishi kerak.

Hol belgilari va morfologik-sintaktik moslik: O‘zbek tilida grammatik rollarni, masalan, subyekt, obyekt yoki egasi kimligini ko‘rsatish uchun hol belgilari ishlatiladi. O‘zbek tilidagi bog‘liqlikni aniqlashda ushbu belgilarni hisobga olishi kerak, chunki ular so‘zlar o‘rtasidagi munosabatlarga bevosita ta’sir qiladi.

O‘zbek tilidagi bog‘liqlikni aniqlashning asosiy tarkibiy qismlari: O‘zbek tilidagi iyerarxik bog‘liqlikni aniqlashda tilning o‘ziga xos tuzilmalarini hisobga olish, batafsil annotatsiyalar va lingvistik belgilashlar kerak bo‘ladi.

Quyida asosiy komponentlari keltirilgan:

So‘z turkumni belgilash: So‘z turkumlari har bir so‘zning sintaktik toifasini (masalan, ot, fe’l, sifat) aniqlaydi. O‘zbek tilida so‘z turkumlarini belgilash birinchi bosqichdir, chunki bu bog‘liqlik munosabatlarini o‘rnatish uchun asosiy ma’lumot qatlamini ochib beradi.

Jumlalarda bosh so‘zlarni tanlash va bog‘liqlik munosabatlari: O‘zbek tilida gapdagi so‘zlar “bosh” so‘zga, odatda asosiy fe’lga, bog‘liq bo‘ladi, u bog‘liqlik tuzilmasining ildizi sifatida xizmat qiladi. Dunyo amaliyotida universal bog‘liqlik munosabatlari mavjud va bu qoidalarni tatbiq qilish o‘zbek kopmyuter lingvistikasi uchun juda muhim.

O‘zbek tili uchun quyidagi bog‘liqlik munosabatlarini aniqlaymiz:

- *nsubj:* Fe’lning subyektini belgilaydi.
- *obj:* Fe’lning obyektini ko‘rsatadi.
- *obl:* Obyektiv argumentlarni belgilaydi, odatda, oldin so‘zlar yoki hol sifatli modifikatorlardir.
- *det:* Egasini bildiruvchi zamonlarni ifodalaydi, masalan, egasi zamonlari.
- *amod:* Otlarni modifikatsiya qiluvchi sifat modifikatorlari.

O‘zbekcha jumlani ko‘rib chiqamiz: *Mening yangi do‘stim maktabga bordi.*

1-jadval.

O‘zbek tilida iyerarxik tahlil qilish misoli.

So‘z	Lemma	POS	Bosh so‘z	Iyerarxik bog‘lanish
Mening	men	PRON	do‘stim	nmod
yangi	yangi	ADJ	do‘stim	amod
do‘stim	do‘st	NOUN	bordi	nsubj
maktabga	maktab	NOUN	bordi	obl
bordi	bormoq	VERB	ILDIZ (ROOT)	ILDIZ (ROOT)

[12] Nurmonova D. Hozirgi o‘zbek adabiy tili: sintaksis. Ma’ruzlar matni. – Toshkent, 2016. – B. 287.

Ushbu misolda:

- **Mening** (mening) – **do‘stim** (do‘stim) so‘zining egasi modifikatori (nmod).
- **Yangi** (yangi) – **do‘stim** (do‘stim) so‘zining sifat modifikatori (amod).
- **Do‘stim** (do‘stim) – **bordi** (bordi) asosiy fe’lning subyekti (nsubj).
- **Maktabga** (maktabga) – manzilni ko‘rsatuvchi obyektiv modifikator (obl).

Mazkur misoldan ham ko‘rish mumkinki o‘zbek tilida iyerarxik bog‘liqlikni tahlil (izohlash) qilishda quyidagi turdagi muammolar kuzatiladi:

- *Ma’lumot yetishmovchiligi:* rivojlangan tillardagi kabi keng tarqalgan tillarga nisbatan olganda, o‘zbek tilida katta va annotatsiyalangan korpus deyarli mavjud emas, bu esa iyerarxik parserlarni yetarli ma’lumot bilan o‘qitishni qiyinlashtiradi. Cheklangan resurslar ko‘pincha murakkab jumla tuzilmalarida past parsing aniqligiga olib keladi.
- *Dialekt farqlari:* O‘zbek tilida bir nechta dialektlar mavjud bo‘lib, har biri o‘ziga xos leksik va sintaktik farqlarga ega. Standart o‘zbek tilida o‘qitilgan parser dialekt farqlarini qayta ishlashda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin, bu esa dialektga xos o‘qitish ma’lumotlariga yoki moslashuvchan modellarga ehtiyoj tug‘diradi.
- *Morfologik murakkablik:* O‘zbek tilining agglutinativ tabiati affikslar orqali keng so‘z hosil qilish imkonini beradi. Har bir shakl so‘zning jumladagi rolini sezilarli darajada o‘zgartirishi mumkin, bu esa parserlarning ushbu shakllarni to‘g‘ri tanib olish va qayta ishlashini muhim
- *Moslashuvchan sintaksis***:** Moslashuvchan so‘z tartiblarini parsing qilish qiyin, chunki parserlar ko‘pincha bog‘liqliklarni aniqlash uchun barqaror naqshlarga tayanadi. O‘zbek tilida, jumlalar har xil so‘z tartiblarida grammatik jihatdan to‘g‘ri bo‘lishi mumkin, bu esa sintaktik tahlilni murakkablashtiradi.

O‘zbek tili uchun iyerarxik parsingini rivojlantirish tilning o‘ziga xos xususiyatlariga e’tibor qaratadigan takomillashtirilgan resurslar va murakkab usullarga muhtoj. Dissertatsiyaning adabiyotlarida iyerarxik parsingning kelgusida kutiladigan yo‘nalishlari keltirilgan.

Tadqiqotning II bobi “**O‘zbek tilining ierarxik tahlili korpusini yaratish metodlari va uning amaliy-texnologik jihatlari**” deb nomlangan.

Korpusda uchta maxsus dastlabki ishlov berish bosqichi amalga oshirildi:

metama’lumotlarga qo‘shish – bu har bir misol jumlaga kuzatish, tushunarlilik va unikallik uchun ID-identifikatsiya belgisi berishdir, tarjimalar, shuningdek, ijtimoiy tarmoq va veb sahifalardan olingan jumlalar identifikatsiya qilinadi. Iyerarxik daraxt korpusi ma’lumotlari, metama’lumotlar raqamlash belgisi (#) bilan bog‘lanadi;

xatolarni o‘chirish – bu xatolarni tuzatish, bo‘shliklarni tekshirish va yetishmayotganlarni to‘ldirish, tinish belgilari mavjud gaplarni formatlashni o‘z ichiga oladi. Xabarlar jumlalarida xatolar va noqulay tarjimalar ham bo‘lishi mumkin bo‘lib ular tuzatiladi;

imloviy standartlashtirish – bu o‘zbek tili uchun zarur jarayon, chunki aniq imlo qoidalarisiz tilning qayta ishlanishi murakkablashadi[13]. Biroq imlo standartlashtirish ortiqcha qat’iy bo‘lmasligi kerak, balki muvozanatni saqlash muhimdir. Bu mahalliy o‘zbek tilida so‘zlashuvchilar uchun tabiiy bo‘lgan shakllarni saqlash va imlo tizimini ortiqcha murakkablashtirmaslik o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash uchun amalga oshiriladi. O‘zbek tilida dependency treebank yaratishda, daraxt tuzilishidagi lemmalarning o‘zgarishi ham ushbu muvozanatni saqlash uchun muhim ahamiyatga ega.



1-rasm. Ieyarxik daraxti korpusini ishlab chiqish jarayoni (ketma-ketligi).

Keyingi bosqichda gapni alohida so‘zlarga yoki belgilarga ajratiladi (tokenlash), masalan, “Mushuklar tez yugurmoqda” jumlasi [“Mushuklar”, “yugurmoqda”, “tez”]ga tokenlanadi. Tokenlash jarayoni tinish belgilarini, qisqarishlarni va so‘zlar orasidagi turli intervallarni boshqarishi mumkin. Murakkab so‘zlar va qisqartmalarning segmentatsiyasi ham alohida o‘rin egallaydi (masalan, “FA”, “Nyu York”, va h.k.)

Negizlash (Lemmalash) bosqichida har bir so‘zning lug‘aviy shakli (lemma), ya’ni lug‘atlarda uchraydigan asosiy shakli aniqlanadi. O‘zbek tili agglyutinativ til bo‘lgani uchun, lemma sifatida odatda hech qanday grammatik qo‘shimcha olmaydigan sof lug‘aviy shakl tanlanadi.

Keyingi bosqichda jumladagi har bir so‘zni asosiy yoki lug‘at shakligacha qisqartirish jarayoni bo‘lib o’tadi (jumlalarni negizlash / lemmalash), u ko‘plab tabiiy tillarni qayta ishlash vazifalarida foydalidir. O‘zbek tilida negizlash – so‘zni morfologik tahlil qilish orqali uning asosiga (lug‘at shakliga / negiziga) qisqartirishni o‘z ichiga oladi. O‘zbek tili aglyutinativ til bo‘lib, u ko‘pincha

[13] Bernd Bohnet. Very high accuracy and fast dependency parsing is not a contradiction // University of Stuttgart. – Germany, 2010. – P. 93-94.

zamon, mayl, shaxs va holni bildirish uchun qo‘shimchalardan foydalanadi. Shuning uchun o‘zbek tilidagi negizlash o‘zakni olish uchun qo‘shimchalarni olib tashlashni talab qiladi. Matnli korpusni shakllantirish maqsadida negizlash (lemmalash)da quyidagicha misollarni uchratishimiz mumkin: *Gap*: Men kitob o‘qiyapman va ukam musiqa tinglayapti (*Lemmalar:* Men, kitob, o‘qi, va, uka, musiqa, tingla); *Gap:* U dars tayyorlayapti, chunki ertaga imtihon bor (*Lemmalar*: U, dars, tayyorla, chunki, ertaga, imtihon, bor); *Gap:* Agar ob-havo yaxshi bo‘lsa, biz sayrga chiqamiz (*Lemmalar:* Agar, ob-havo, yaxshi, bo‘l, biz, sayr, chiq).

Bu yerda jumlalarni negizlash jarayonidan quyidagi misollarni keltirishimiz mumkin:



2-rasm. Yaxlit bir gapdagi so‘zlarning negizlarini (lemmalarini) belgilash.

So‘zlarda, asosan, asos so‘zlar shu shaklda olindi va tizimda avtomatik tarzda lemmalash amalga oshirildi. Gapdagi har bir so‘z, tinish belgilari alohida lemma qilib olindi.

So‘z turkumlarini aniqlash/teglash (POS). Har bir token uchun so‘z turkumlari aniqlanadi, chunki negizlash jarayonida aniq natijalarni ta’minlash so‘z turkumlarini aniqlanashga bog‘liq. so‘z turkumlarini aniqlanash jarayonida har bir so‘zga ot, fe’l, sifat va boshqa grammatik belgilar tayinlanadi. Python dasturlash tilidagi NLTK (Natural Language Toolkit) yoki spaCy kabi kutubxonalar so‘z turkumlari aniqlanash jarayonida POS teglarini taqdim etadi.

PoS (Part-of-Speech) teglarini quyidagi uchta katta guruhga ajratish mumkin:

Tokenlash (so‘zlarni segmentlash). So‘zlar odatda bir biridan bo‘sh joy orqali ajratiladi, lekin bunda quyidagi mustasnolar mavjud:

– chiziqcha belgisi (“-”) bilan ajratilgan qo‘shma yoki takroriy so‘zlar (masalan, kuta-kuta, bora-bora);

– “bo‘lib” “holda” kabi bog‘lovchilari hol belgilarining paydo bo‘lishi so‘zga qo‘shilgan bo‘lish ko‘p so‘zli leksema sifatida leksema qilinadi;

2-jadval.

So ‘z turkumlarining sinflari.

Ochiq sinf so‘zlar (Open class words) *Bu sinfga kiruvchi so‘zlar doimiy ravishda yangi so‘zlar bilan to‘ldirilishi mumkin. Ochiq sinf so‘zlar jumlada asosiy mazmunni yetkazadi va quyidagilarni o‘z ichiga oladi. Masalan: Otlar (Nouns – NOUN, PROPN): kitob, talaba, O‘zbekiston. Fe’llar (Verbs – VERB): yozmoq, o‘qimoq, gapirdi.*	**Yopiq sinf so‘zlar (Closed class words)** *Bu sinfga kiruvchi so‘zlar miqdor jihatdan cheklangan, ular deyarli yangi so‘zlar bilan boyib bormaydi va ko‘pincha grammatik vazifalarni bajaradi. Masalan: Olmoshlar (Pronouns – PRON): men, sen, ular. Bog‘lovchilar (Conjunctions – CCONJ, SCONJ): va, yoki, ammo, chunki.*	**Boshqalar (other)** *Bu toifaga grammatik vazifasi jihatidan yuqoridagi ikki guruhga kirmaydigan boshqa toifalar kiradi, masalan: Tinish belgilar (Punctuation – PUNCT) nuqta (.), vergul (,), savol belgisi (?) Simvollar (Symbols – SYM): $, %, @, №.*
ADJ: sifat	ADP: ko‘makchi	PUNCT: tinish belgilari
ADV: ravish	AUX: yordamchi fe’l	SYM: simvollar
INTJ: undov so‘z(interjection)	CCONJ: bog‘lovchi	X: boshqalar
NOUN: ot	DET: aniqlovchi	
PROPN: atoqli ot	NUM: son	
VERB: fe’l	PRON: olmosh	

O‘zbek tili turkiy tillar oilasiga mansub bo‘lib, uning sintaktik tuzilmasi ko‘plab o‘ziga xos xususiyatlarga ega. O‘zbek sintaksisining asosiy xususiyatlari quyidagicha:

O‘zbek tilida gaplar odatda “Ega – To‘ldiruvchi – Kesim” (ETK) tartibida tuziladi (masalan, “Men kitob o‘qiyman” gapida). O‘zbek tilida so‘zlar ko‘pincha qo‘shimchalar yordamida o‘zgaradi, ushbu qo‘shimchalar so‘zning ma’nosini va sintaktik rolini aniqlaydi. O‘zbek tilida so‘zlar orasidagi bog‘lanishlar ham ko‘pincha qo‘shimchalar orqali amalga oshiriladi, shuning uchun so‘z tartibi nisbatan erkin. O‘zbek sintaksisini boshqa tillar bilan taqqoslaganda bir qator qiziqarli o‘xshashliklar va farqlarni ko‘rish mumkin. Ingliz tilida ham ETK tuzilmasi mavjud, lekin o‘zbek tilidan farqli o‘laroq, fe’lning o‘rni va shakli qat’iyroqdir. Ingliz tilida so‘zlar orasidagi bog‘lanish asosan yordamchi fe’llar va kelishiklar orqali amalga oshiriladi.

Korpusning rasmiy formati (CONLL-U)

Gaplar bir yoki bir nechta so‘z qatorlaridan tashkil topadi va so‘z qatorlari quyidagi maydonlarni o‘z ichiga oladi:

1. **ID:** So‘z indeksi, har bir yangi gap uchun 1 dan boshlanadigan butun son; ko‘p so‘zli birliklar uchun oraliq bo‘lishi mumkin; bo‘sh tugunlar uchun kasr son bo‘lishi mumkin (kasr sonlar 1 dan kichik bo‘lishi mumkin, lekin 0 dan katta bo‘lishi shart).

2. **FORM:** So‘z shakli yoki tinish belgisi.

3. **LEMMA:** So‘z shaklining lemmasi yoki o‘zagi.

4. **UPOS:** so‘z turkumi belgisi.

5. **XPOS:** Ixtiyoriy tilga xos (yoki istalgan iyerarxik daraxt modeliga xos) so‘z turkumi / morfologik belgi; mavjud bo‘lmasa, pastki chiziq qo‘yiladi.

6. **FEATS (XUSUSIYATLAR)**: Xususiyatlar ro‘yxatidan yoki belgilangan tilga xos kengaytmadan olingan morfologik xususiyatlar ro‘yxati; mavjud bo‘lmasa, pastki chiziq qo‘yiladi.

7. **HEAD(BOSH)**: Joriy so‘zning boshi, bu ID qiymati yoki nol (0) bo‘lishi mumkin.

8. **DEPREL**: BOSH ga nisbatan bog‘liqlik munosabati (agar BOSH = 0 bo‘lsa, ildiz) yoki uning belgilangan tilga xos kichik turi.

9. **DEPS**: Bosh-bog‘liqlik juftliklari ro‘yxati ko‘rinishidagi kengaytirilgan bog‘liqlik grafigi.

10. **MISC** (BOSHQA): Har qanday boshqa izoh.

```
# text = Hozirda bunday kishilarga 85 ta faoliyat turi bilan shug‘ullanishga ruxsat berilgan.
1	Hozirda	hozirda	ADV	_	_	11	advmod	_	_
2	bunday	bunday	DET	_	_	3	det	_	_
3	kishilarga	kishi	NOUN	_	Case=Dat|Number=Plur	11	obj	_	_
4	85	85	NUM	_	NumType=Card	7	nummod	_	_
5	ta	ta	X	_	_	4	compound	_	_
6	faoliyat	faoliyat	NOUN	_	Case=Nom|Number=Sing	7	nmod	_	_
7	turi	tur	NOUN	_	Case=Nom|Number=Sing	9	obl	_	_
8	bilan	bilan	ADP	_	_	7	case	_	_
9	shug‘ullanishga	shug‘ullan	VERB	_	Case=Dat|VerbForm=Vnoun	11	xcomp	_	_
10	ruxsat	ruxsat	NOUN	_	Case=Nom|Number=Sing	11	compound:lvc	_	_
11	berilgan	ber	VERB	_	Tense=Past|VerbForm=Fin|Voice=Pass	0	root	_	SpaceAfter=No
12	.	PUNCT	_	_	11	punct	_	_
```

3-rasm. Bitta jumlaning CONLL-U rasmiy formatida tahlil jarayonida ko‘rinishi.



4-rasm. Jumlaning iyerarxik daraxti shaklidagi tahlil ko‘rinishi.

So‘z turkumlarini aniqlash va tizimga kiritish jarayoni ham mazkur bo‘limda yoritib berilgan. O‘zbek tili korpusida so‘z turkumlarini (POS) teglash matndagi har bir so‘zga grammatik toifalar yoki nutq qismlarini belgilash jarayonidir. Jumladagi har bir so‘z ot, fe‘l, sifat, qo‘shimcha va hokazo ekanligini ko‘rsatadigan teg bilan teglanadi[14]. POS belgilari tabiiy tilni qayta ishlashda

[14] Zeman D. Reusable Tagset Conversion Using Tagset Drivers / In Proceedings of the 6th International Conference on Language Resources and Evaluation (LREC ’08). In Marrakech. – Morocco, 2008. – P. 213-218.

jumlalarning tuzilishi va ma’nosi haqida tushuncha beradigan muhim dastlabki ishlov berish bosqichidir.



5-rasm. Iyerarxik korpusda gapdagi so‘zlarning so‘z turkumlari (POS)ni belgilab olinishi va korpusdagi umumiy ko‘rinishi.

So‘z turkumlari teggerlari yordamida POS teglarini tayinlash: POS teglari so‘z morfologiyasi, tarkibi va sintaksis asosida jumla qismlarini aniqlashga o‘rgatilgan maxsus belgilardir. Ba’zi umumiy POS teglari quyidagilarni o‘z ichiga oladi: Ot (Noun), fe’l (Verb), sifat (Adjective), olmosh (PRN), predlog (PREP) va boshqalar. POS teggerlari oldindan taxmin qilish uchun ko‘pincha lingvistik qoidalar, mavjud modellar yoki mashinani o‘rganishdan foydalanadi.



6-rasm. Gapdagi so‘zlarning turkumlarini teglar (POS tags) bilan ajratish.

So‘z turkumlarini teglashdagi usullar.

Qoidalarga asoslangan teglash: Kontekstga asoslangan teglarni belgilash uchun qo‘lda yaratilgan grammatik qoidalardan foydalanadi (masalan, agar so‘z maqoladan keyin bo‘lsa, u ot bo‘lishi mumkin); Stoxastik (statistik) teglash: Yashirin Markov modellari (HMMs) yoki shartli tasodifiy maydonlar (CRFs) kabi ehtimollik usullaridan foydalanib, so‘zning POS yorlig‘i ehtimolini uning kontekstiga asoslangan holda hisoblash orqali teglarni tayinlaydi;

Mashinali o‘rganish / chuqur o‘rganishga asoslangan teglash: Neyron tarmoqlar, ayniqsa, takroriy tarmoqlar va transformatorlar (masalan, BERT) POS

teglarini bashorat qilish uchun katta izohli korpuslarda o‘qitiladi. Ushbu modellar tildagi murakkab obyektlarni aniqlashni o‘rganadi va adekvat xulosalar chiqaradi.[15]

NLP kutubxonalari bilan POS tegiga misollar.

2-jadval.

Python-ning NLTK kutubxonasidan foydalanishda namuna

```
import nltk
nltk.download('averaged_perceptron_tagger')
jumla = “Chaqqon, jigarrang tulki dangasa itning ustiga sakraydi”
tokens = nltk.word_tokenize(sentence)
pos_tags = nltk.pos_tag(tokens) print(pos_tags)
   # Output: ('chaqqon', 'JJ'), ('jigarrang, 'JJ'), ('tulki', 'NN'), ('sakraydi', 'VBZ'),
                    ('ustiga', 'IN'), ('dangasa', 'JJ'), ('it', 'NN')]
```

Tadqiqotning III bobi “**O‘zbek tilidagi gaplarning iyerarxik tahlili korpusining samaradorligi**” deb nomlangan. Ushbu bo‘limda o‘zbek tilidagi jumlalarning iyerarxik tahlilini o‘zida mujassamlashtiruvchi va namoyish etuvchi korpusning yakuniy ko‘rsatkichlari, ishlashi, sifati va qamrovi baholangan.

O‘zbek tili uchun tadqiq qilingan iyerarxik korpusi 1200 ta sintaktik jihatdan belgilangan sodda-murakkab aralash gaplarni o‘z ichiga oladi. Korpus tarkibida online yangiliklardan iborat vebsite ma’lumotlari va badiiy adabiyot matnlari namunalari mavjud bo‘lib, ular tegishli ravishda 700 va 500 gapdan iborat. 3-jadvalda korpusning asosiy hajm ko‘rsatkichlari keltirilgan.

3-jadval.

Yaratilgan korpusdagi gaplaring jami soni va ularning tahlil ko‘rsatkichlari.

Ko‘rsatkich	Qiymat
Jami gaplar soni	1200 (yangilik: 700; badiiy: 500)
Jami tokenlar soni	18 000
O‘rtacha gap uzunligi	15 ta token
UD sintaktik bog‘lanish turlari	33 (to‘liq qamrov)
UD so‘z turkumlari (POS)	17 (barchasi mavjud)

O‘tishga-asoslangan (Transition-based) iyerarxik bog‘liqlik parsing usuli – matnni tahlil qilishda so‘zlar orasidagi sintaktik bog‘lanishlarni ketma-ket amallar (shift, reduce, arc-left, arc-right) orqali aniqlovchi sun’iy intellekt modellar oilasiga mansub bo‘lib (7-rasm), u quyidagicha jarayonda ishlaydi:

Boshlang‘ich stek (Stack), bufer (Buffer) va o‘tish (Transition) amallari orqali bajariladi. Har bir qadamda sintaktik bog‘liqliklar ketma-ket ravishda aniqlanadi.

[15] Zimbra D., Abbasi A. and Zeng D. The State-of-the-Art in Twitter Sentiment Analysis: A Review and Benchmark Evaluation, ACM Transactions on Management Information Systems, 2018.Vol. XX, No. X, 9.



7-rasm. O‘tishga-asoslangan(Transition-based) iyerarxik bog‘liqlik parsing sun’iy intellekt modeli.

Asosiy baholash mezonlari quyidagilardan tashkil topgan:

- **UAS** *(Unlabeled Attachment Score)* – To‘g‘ri aniqlangan bog‘lanishlar ulushi (teglarsiz).
- **LAS** *(Labeled Attachment Score)* – Yorliq bilan to‘g‘ri aniqlangan bog‘lanishlar foizi.



8-rasm. Sun’iy intellekt modelining Arc Standard (Standart yoy) va Arc Eager (Yoysimon Shoshqin model) UAS/LAS baholash natijalari.

Yuqoridagi rasmda O‘tishga-asoslangan (Transition-based dependency parsing) algoritmlaridan Arc-Standard va Arc-Eager ning samaradorligi **UAS** va **LAS** mezonlari orqali solishtirilmoqda.

